

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TO'SIQ
BO'LADIGAN QIYINCHILIKLAR.****Shukorova Ra'no Kaxarovna***Samarqand turizm va madaniy meros texnikumi
o'qituvchisi, e-mail: rano7098@gmail.com***Obidova Sobira Sobirjonovna***Samarqand turizm va madaniy meros
texnikumi, I-kurs talabasi.***Saidova Dilnoza Sherzod qizi***Samarqand turizm va madaniy meros
texnikumi, I-kurs talabasi.*

Anotatsiya: *Turizm mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqoda turizmning ahamiyatini ochib berish bilan birga, turizm sohasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham aniq faktlar bilan birga sanab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Turizm, turist, ekotizimlar, COVID-19, iqtisodiy tebranishlar, inflyatsiya, infratuzilma, texnologiyalar, fan, texnika, bronlash platformalar.*

Turizm sanoati jahon iqtisodiyoti va jamiyatida muhim o'rin tutadi. Turizm ko'plab mamlakatlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Bu turli sohalarida – mehmonxona biznesi, transport, restoranlar, do'konlar, shuningdek, ko'ngilochar va madaniyat sohalarida ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi. Bugungi kunda jahon turizm bozori qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.¹

Turizmni rivojlantirish yo'llar, aeroportlar, mehmonxonalar, muzeylar va boshqa ob'ektlar kabi infratuzilmani yaxshilashga olib keladi, bu esa mahalliy aholiga ham, ular turist bo'lmasa ham, foyda keltiradi. Shuningdek, turizm xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va madaniy almashinuvga yordam beradi, xalqaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, turli mamlakatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Sayyohlar an'analar, tarix va san'at bilan tanishadilar, bu esa madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali davlat hukumatlar ishsizlik hajmini qisqartishi mumkin. Chunki turizm sohasi juda ko'plab ish o'rinlarini, jumladan,

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/3327>.

turoperatorlar, turagentlar, gidlar, mehmonxona xodimlari, restoran xodimlari kabilar. Qisqacha xulosa qilidigan bo'lsak, turizm sanoati iqtisodiyot, madaniyat, infratuzilma va ekologiyaga ta'sir ko'rsatadigan murakkab va ko'p qirrali sohadir.

Yuqoridagi turizm sohasining ijobiy tomonlari borligiga qaramasdan, bugungi kunda turizm sohasida ko'plab muammolar mavjud. Turizm sohasi uning rivojlanishi va barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qator muammolarga duch kelmoqda. Bu sohaning jadal o'sishi, gullab-yashnashi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri bu atrof-muhit muammolaridir. Turizm ekotizimlarga jiddiy zarar etkazishi mumkin, jumladan, ifloslanish, o'rmonlarni kesish va tabiiy resurslarni yo'q qilish. Ommaviy turizm plyajlar, tog'lar va tarixiy obidalar kabi tabiiy ob'ektlarning degradatsiyasiga olib kelishi mumkin. Sayyohlik agentliklari va sayyohlarning ba'zi harakatlari vaqt o'tishi bilan atrof-muhitning har xil ifloslanishi, jumladan havo, yer, suv va tuproq orqali boradigan joylarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, ba'zi sayyohlar chiqindilarni tashlab, atrofida plastmassalar va sigaret qoldiqlari kabi chiqindilarni tashlab ketishadi, shu bilan yer ifloslanishi paydo bo'ladi.²

Pandemiya va sog'liqni saqlash tizimida inqirozlari turizm sanoatini tanazzulga olib kelishi mumkin. COVID-19 kabi kasalliklarning tarqalishi turizm sanoatini butunlay falaj qilishi mumkin. Chegaralarning yopilishi, sayohatga cheklovlar va karantin choralari sayyohlar sonini kamaytiradi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Bunga yorqin misol qilib, 2020 yilda xalqaro turizm va bir-biri bilan chambarchas bog'liq sohalar 2,4 trln dollar miqdorida zarar ko'rgan.³

Siyosiy beqarorlik ham turizm sohasining rivojlanishiga g'ovlardan biri sanaladi. Ba'zi mamlakatlarda mojarolar, urushlar, terroristik hujumlar yoki norozilik harakatlari bu hududlarga sayyohlar oqimini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Sayyohlar odatda xavfli yoki beqaror mamlakatlardan qochishadi. Turizmga siyosiy qarama-qarshiliklarning iqtisodiy oqibatlari sezilarli. Uzoq davom etgan mojarolar yoki diplomatik keskinliklar bilan kurashayotgan mamlakatlarda ko'pincha xorijiy investitsiyalar qisqarishi va turizm bilan bog'liq sohalarining turg'unligi kuzatiladi. Turizmning muhim jihati bo'lgan infratuzilmani rivojlantirish resurslarning yo'naltirilganligi yoki beqaror mintaqalarga sarmoya kiritishni istamaslik tufayli sustlashishi mumkin, bu esa mamlakatning sayyohlik yo'nalishi sifatida jozibadorligiga yanada ta'sir qiladi. Iqtisodiy ta'sirlardan tashqari, siyosiy mojarolar destinatsiyaning madaniy va meros turizmiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha mojarolar o'rtasida

² Qosimov Ibrohim Normuhammadovich, Mamatraimov Asadullo O'rol o'g'li. Turizmning atrof-muhitga ta'siri, "Innovative achievements in science 2023", 1-bet.

³ <https://news.un.org/ru/story/2021/06/1405562>.

qolib ketgan tarixiy ahamiyatga ega yoki madaniy meros obyektlari zarar ko'rish yoki vayron bo'lishi, bebaho boyliklarni o'g'irlanishi va sayyohlar uchun ushbu yo'nalishlarning jozibadorligini kamaytirishi mumkin. To'qnashuv zonalaridagi turizmning insoniy elementini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Tirikchilik uchun asosan turizmga tayanadigan mahalliy jamoalar halokatga duch kelishmoqda. Ish o'rinlarining yo'qolishi, korxonalarining qisqarishi va turmush tarzining buzilishinodatiy holga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytiradi va siyosiy notinchlikdan jabrlangan hududlarda qashshoqlik davrlarini davom ettiradi.⁴

Turizm o'zining ijobiy iqtisodiy oqibatlarini tufayli, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. 2015 yildan 2019 yilgacha turizm sanoati jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'ini tashkil etdi. COVID-19 pandemiyasi natijasida bu ulush 2020 yilda davom etayotgan harakatlanish cheklovlari tufayli 5,3 foizgacha kamaygan, keyin esa 2021 yilda 6,1 foizgacha oshgan. Bandlik nuqtai nazaridan 2019 yilda sektor tomonidan 333 million ish o'rni qo'llab-quvvatlandi, ya'ni barcha ish o'rinlarining 10 tadan 1 qismi. 2021 yilda bu sohada bandlik 18,6 foizni tashkil etdi, bu esa 2021 yilda 21,7 foizga (289,5 million kishigacha) oshdi. Turizm sektori 2021 yilda dunyo miqyosida har 11 ish joyidan 1 tasini qo'llab-quvvatladi.⁵ Biroq, iqtisodiy tebranishlar ham turizm sohasining rivojlanishiga asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Valyuta kursining o'zgarishi, inflyatsiya va iqtisodiy inqirozlar odamlarning sayohat qilishlarini qiyinlashtirishi va sayyohlik kompaniyalari xarajatlarini oshirishi mumkin. Iqtisodiyotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm iqtisodiy inqirozlarga zaiflashishi mumkin.

Ajablanarli bo'lishi mumkin, lekin turistik ob'ektlarning haddan tashqari ko'pligi ham turizmning rivojlanishiga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Turistlar oqimining haddan tashqari ko'pligi infratuzilmaning to'lib ketishiga, transport bilan bog'liq muammolarga, mehmonxonalarning to'lib ketishiga va xizmat ko'rsatish sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda biz texnologiyalar asrida yashayapmiz. Kundan-kunga zamonaviy texnologiyalar kashf etilyapti. Texnologiya bu ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgaritish va manipulyatsiya qilish qilish

⁴ Hamidjon Rasulov, "Siyosiy mojarolarning turizmga ta'siri", Qo'qon universiteti xabarnomasi, Ilmiy-elektron jurnali. OAK: 01-08/1819/6. ISSN:2181-1695.147-bet.

⁵ Imamboccus Rookayyah, Boopen Seetanah, Robin Nunkoo, Zameelah Khan Jaffur, "The impact of exchange rate and exchange rate volatility on tourism demand using disaggregated data". International journal of Tourism Research. <https://doi.org/10.1002/jtr.2640>. On page 1.

maqsadida qo'llanishidir.⁶ Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanib va o'zgartirib turadi. O'zgarishlar turizm sanoatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumki. Onlayn bronlash platformalarining ko'tarilishi va sayohatchilarning afzalliklarining o'zgarishi kabi texnologiyadagi tez o'zgarishlar kompaniyalardan moslashuvchan bo'lishni va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun yangi yechimlarni qabul qilishga tayyor bo'lishni talab qiladi.

Madaniy va ijtimoiy farqlar ham turizmning rivojlanishiga manfiy zarar keltirishi mumkin. Xalqaro turizmning o'sishi bilan sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasida nizolar kelib chiqishi mumkin, ayniqsa turistlar mahalliy urf-odatlar yoki qonunlar bilan tanish bo'lmasa. mahalliy urf-odatlarni noto'g'ri tushunish sayyohlar va mahalliy aholining noroziligiga olib kelishi mumkin. Ba'zi sayyohlar mahalliy me'yorlarga (masalan, kiyinish kodi, muqaddas joylarda o'zini tutish) hurmat qilish muhimligini tushunmasligi mumkin, bu esa ziddiyatli vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, Hindistonda rang-barang urf-odatlarni ko'rish mumkin. Dunyodagi eng ko'p vegetarianlar Hindistonda yashaydi. Hindlarning 40 foizga yaqini – vegetarianlar. Jon boshiga go'sht iste'mol qilish bo'yicha eng past ko'rsatkichga ega. Ushbu mamlakatda sigir muqaddas hayvon hisoblandi. Hindistonning amaldagi qonunchiligiga ko'ra, ushbu qoidabuzarliklar uchun 7 yillik qamoq jazosi berilishi va 50 ming rupiylik (615 dollar) jarima solinishi mumkin. Kelajakda ushbu qonunga qo'shimcha tarzda umrbod qamoq jazosidan tashqari, mol go'shti tashilgan transport vositasini musodara qilish ham nazarda tutulgan.⁷ Mahalliy urf-odatlar va madaniyatdan bexabar sayyohlar munosabatlarda keskinlikni keltirib chiqaradigan stereotiplarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi mamlakatlarning iqtisodiyoti uchun muhim sohalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi muammolarni kompleks yondashuv asosida hal etish mumkin. Agar muammolarni tizimli tarzda hal etiladigan bo'lsa, ushbu soha mamlakatning asosiy daromad manbai, shuningdek, ko'plab ish o'rinlari yaratilgan soha bo'lib xizmat qiladi.

⁶ Britannica, T. Editors of Encyclopaedia (2024, March 13). technology. Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/technology/technology>.

⁷ <https://www.theguardian.com/international>.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia (2024, March 13). technology. Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/technology/technology>.
2. Hamidjon Rasulov, “Siyosiy mojarolarning turizmga ta’siri”, Qo‘qon universiteti xabarnomasi, Ilmiy-elektron jurnali. OAK: 01-08/1819/6. ISSN:2181-1695.147-bet.
3. Imamboccus Rookayyah, Boopen Seetanah, Robin Nunkoo, Zameelah Khan Jaffur, “The impact of exchange rate and exchange rate volatility on tourism demand using disaggregated data”. International journal of Tourism Research. <https://doi.org/10.1002/jtr.2640>. On page 1.
4. Qosimov Ibrohim Normuhammadovich, Mamatraimov Asadullo O‘rol o‘g‘li. Turizmning atrof-muhitga ta’siri, “Innovative achievements in science 2023”, 1-bet.
5. <https://news.un.org/ru/story/2021/06/1405562>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/3327>
7. <https://www.theguardian.com/international>.